



TAFAKKUR VA SHAXS TAFAKKURINI O‘STIRISH

Berdiyeva L.N.

Qashqadaryo viloyat Pedagogik Mahorat Markazi Pedagogika, psixologiya ta'lim menejmenti kafedrasida katta o'qituvchisi

Tayanch soʻzlar: tafakkur, dialektik mantiq elementlari, bilish jarayoni, amaliy faoliyat, didaktika tizimi, tushunchalar tahlili, tasavvur, amaliy tafakkur.

Ключевые слова: мышление, элементы диалектической логики, познавательный процесс, практическая деятельность, дидактическая система, анализ понятий, воображение, практическое мышление.

Key words: thinking, elements of dialectical logic, cognitive process, practical activity, didactic system, analysis of concepts, imagination, practical thinking.

Tafakkur qilish qobiliyati ongning muhim xususiyati boʻlib, uni aqlning faqat maʼlum bir rivojlanishi bilan bogʻlab boʻlmaydi. Dialektik mantiq elementlari “sogʻlom idrok” darajasida ham namoyon boʻladi. Oʻquv jarayonida oʻquvchilarning tafakkuri yangi oʻquv materialini murakkablashtirish, darslik mazmunini oʻrganish, fizikaviy tajribalarni tashkil etishning dialektik usulini qoʻllash orqali, yaʼni fizika va boshqa fanlarni oʻqitishning butun didaktika tizimida bosqichma-bosqich, katta bosimsiz rivojlanadi.

Bilish jarayonida tafakkurning har xil turlari farqlanadi: aniqdan mavhumga va aksincha, mavhumdan boyitilgan aniqqa oʻtish. Amaliy faoliyatni tafakkurning aniq natijalarisiz bajarib boʻlmaydi, bundan tashqari, amaliyotning oʻzi bilishning dastlabki ikki turining sintezi boʻlib hisoblanadi.

Aniqdan mavhumga oʻtish (tahlil, induksiya va hok.) va aksincha, mavhumdan aniqqa oʻtish (deduksiya) – bularning barchasi oʻrganilayotgan predmetning xilma-xilligini oʻrganish va ochish usullaridir. Ularni birlikda bilish eng keng tarqalgan ilmiy-dialektik usul boʻlib hisoblanadi. Tadqiqot natijalarini tizimlashtirish ixtiyoriy boʻlishi mumkin emas, lekin ularga toʻliq mos kelishi kerak.

Tafakkurning har bir turi qanday rol oʻynashini koʻrib chiqaylik. Aniq-hissiy idrok etishdan mavhum tushunchalarning tarixiy vujudga kelishini takrorlovchi mavhumlashtirishga oʻtish oʻrganilayotgan predmetning muhim xususiyatlarini

bilish, ajratib ko'rsatish va tahlil qilish orqali namoyon bo'ladi. Natijada uning mohiyati idrok yordamida rasmiy-mantiqiy fikrlarni davom ettirish uchun ishlatiladigan ikkilamchi omillarning aksiga aylanadi.

Tadqiq qilish va natijalarni taqdim etish usuli nuqtai nazaridan, aniqdan mavhumba o'tish bilishning aniq shakllarining tobora yuqori pog'onalari orqali ilmiy jarayonga bosqichma-bosqich o'tishdan iboratdir.

A.S.Bogomolovning ta'kidlashicha, "taraqqiyot jarayonida fan ilmiy bayonlarni bevosita kuzatiladigan hodisalardan ajratib turadi. Hodisadan ushbu hodisaning mohiyatiga va undan ham chuqurroq mohiyatiga o'tish mavhumlik qobiliyatining o'sishini, bu qobiliyatning rivojlanishini, mavhum fikrlashning doimiy ravishda yangi faoliyat sohalariga kirib borishini ko'rsatadi. Shu bilan birga, bilishning har bir davri, bilish spirali bo'ylab har bir ko'tarilish haqiqatga yaqinlashish bo'lib, ushbu yaqinlashish cheksiz tabiatga ega".

Tushuncha tahlil orqali yuzaga keladi. Aniq tushuncha shu bilan aniqki, u ko'plab ta'riflarning sintezidan va shu bilan birga qarama-qarshiliklarning birligidan iborat. Bundan tashqari, ma'lum bir aniq tushuncha fikrlash natijasi ekanligini ko'rsatish mumkin, garchi ma'lum bir hodisaning shakllanishi haqida fikr yuritish jarayonida u noma'lum boshlang'ich nuqta bo'lsa ham. Mavhumlikdan aniqlikka o'tish yo'li bilish jarayoni boshlanadigan asosiy mavhumliklarni aniqlashdan iboratdir.

Rasmiy mantiq nuqtai nazaridan mavhumlik rasmiy cheklangan tushunchadir. Dialektik mantiq uni tushunchaning rivojlanmagan murtagi deb hisoblasa, aniq tushuncha esa to'liq rivojlangan shakl sifatida qaraladi. Ushbu shaklini, mazkur fanning mantiqiy tuzilishining elementi bo'lgan boshlang'ich "hujayra" sini topish oson emas. Shuning uchun dialektikada, har qanday fanda bo'lgani kabi, ushbu "hujayra" ni topish muhim rol o'ynaydi: bu yerda gap nafaqat o'rganilayotgan predmetni obyektiv aks ettirish haqida, balki ko'proq tadqiqot natijalari asosida tizimlashtirish, mantiqiy qurish imkoniyatlari haqida bormoqda.

Tabiiy fanlar sohasida metodik tizimning bunday oddiy "hujayrasi", boshlang'ich elementi tushuncha bo'lishi mumkin. Boshlang'ich ta'limning turli o'quv predmetida bunday mavhumliklar - "hujayralar" o'sha fanning asosiy elementar kategoriyalari bo'lishi mumkin.

K. Cheslav ta'kidlaydiki, "har bir aniq yoki tabiiy fanning va umuman o'quv fanlarining butun tizimi aynan shu tamoyil asosida qurilgan. Bunday tizimning boshlang'ich nuqtasi yoki asosi har doim o'rganilayotgan obyektning oddiy (eng mavhum) holatini - genetik tushunchadagi uning hujayrasini ifodalaydi, chunki qolganlari undan kelib chiqqan va rivojlangan bo'ladi. Tuzilma nuqtai nazaridan ham xuddi shunday, chunki hamma narsa uning asosida qurilgan bo'ladi".

Oddiydan kelib chiqadigan va murakkabga o'tadigan, mavhum tushunchadan aniq tushunchaga o'tadigan nazariy tushuncha, bir qarashda, real dunyo bilan



bog‘lanmagan holda rivojlanishi mumkin. “Aniqdan mavhumga o‘tish” usulini qo‘llamasdan, nazariy fikrlash haqiqatga hech qanday aloqasi bo‘lmagan “fil suyagidan minora”ga aylanishi mumkin va amaliy harakatni to‘xtatib qoladi .

Ushbu ikkita dastlabki tushunchani birlashtirish ba’zan o‘rganilayotgan predmet haqida umuman, uning rivojlanish jarayonida mantiqiy va tarixiy mulohazalarning aksi bo‘lib chiqadi. Bu birlashtirishda tahlil va sintez, aniq va mavhum tushunchalar, hissiy va ratsional elementlar, umumiy va xususiy o‘rtasidagi dialektik bog‘lanishlar qo‘llaniladi.

L. S. Vigotskiy o‘rganilayotgan predmetning mohiyatini tushunish uchun uni har tomondan alohida ko‘rib chiqqandan so‘ng uni bir butun sifatida ko‘rib chiqish zarurligini ko‘rsatadi, chunki birlik ikkala yondashuvning o‘zaro bo‘ysunishi va bir-birini to‘ldirishini, davriylikni va qo‘llanilishini nazarda tutadi. Biroq, muayyan holatda, fikrlash usullarining har birining nafaqat o‘rmini, balki chegarasini ham ko‘rsatish mumkin .

Tafakkur qilish faoliyati tuzilmasida uchta elementar tarkibiy qismni ajratib ko‘rsatish mumkin:

1. Tafakkurning natijasi bo‘lgan atrofda dunyo haqidagi axborot; axborot – fikrlarda o‘zgartirilgan narsadir.

2. Tafakkur materialini qayta ishlashga yordam beradigan operatsiyalar yoki elementar aqliy o‘zgarishlar.

3. Qoidalar, yoki ketma-ket operatsiyalarni tartibga solishga ta’sir qiluvchi boshqa narsalar; qoidalar tufayli operatsiyalar zanjiri to‘g‘ri ketma-ketlikka ega bo‘ladi.

Predmetlar haqidagi axborot va ularning tasnifi tafakkur materiali yoki unda o‘zgartirilgan narsadir. Axborot kuzatishlar, tasavvurlar yoki tushunchalarda kodlanishi mumkin.

Insonning kuzatuv maydonida u tushunadigan narsa va hodisalar bo‘ladi. Kuzatishlar atrofimizdagi dunyo haqida ma’lumot beradi va fikr yuritish uchun material bo‘lib hisoblanadi. Axborot maydonini tadqiq qilib, inson atrofda voqelikni faol o‘rganadi. Kuzatish o‘quvchilar tafakkurida katta rol o‘ynaydi. Kuzatishlarning roli yosh o‘tishi bilan kamayadi. Matematiklar, fiziklar va faylasuflarda ustivor bo‘lgan nazariy fikrlash uchun kuzatish materiali deyarli hech qanday ahamiyatga ega emas .

Tafakkurda tasavurning ikki turi ishtirok etadi: takrorlovchi (aks ettiruvchi) tafakkur yoki tanish predmetlarning aqliy tasvirlari, shuningdek, yaratuvchi tasavvur yoki ilgari kuzatilmagan predmet va hodisalarning tasvirlari. Tasavurning ikkala turi ham atrofda voqelik haqida muayyan ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. Tasavurning har bir turining roli hal qilinayotgan muammoning turiga, shuningdek, fikrlash jarayonining bosqichiga bog‘liq bo‘ladi. Tasavvurga asoslangan fikrlash



tafakkurning yakuniy bosqichlariga qaraganda dastlabki bosqichlariga ko‘proq xosdir.

Yoshi katta insonning tafakkurida tushunchalar eng muhim rol o‘ynaydi. Tafakkur – bu tushunchalar bilan ishlash, yangi tushunchalar va ularning kombinatsiyalarini yaratishdir.

“O‘quvchilarning bilish faoliyatida quyidagi tafakkur turlari ajratiladi:
aniq-ifodali – amaliy;
tushunchaviy-mavhu – nazariy.

Amaliy tafakkur ostida biz atrofda voqelikni bevosita bilishga qaratilgan va bu bilishga asoslangan faoliyatni tushunamiz. Nazariy tafakkurning predmeti dalillar bo‘lib, dalillar orasidagi rasmiy bog‘lanishlar esa xulosalar uchun asos bo‘ladi. Tafakkurning tuzilishi va funksiyasini quyidagi sxema orqali ifodalash mumkin” .

Amaliy tafakkur harakatlari uchta tarkibiy qismga ega:

tahlil va sintez: predmet va hodisalarni, ularning elementlari va tizimlarini, o‘xshash va farqli tomonlarini, shuningdek, o‘zaro bog‘liqligini farqlash;

kuzatish va tasavvurga, ular va ularning tuzilmalari o‘rtasidagi o‘xshashlikka asoslangan amaliy tushunish;

tasavvurda sxemalarni yaratish va qayta ishlash, ulardagi kuzatishlarni qamrab olish va ulardan amaliyotda foydalanish.

Amaliy tafakkurni rivojlantirish orqali o‘quvchilar bir qator aqliy harakatlarni amalga oshiradilar. Jumladan:

umumlashtiruvchi va tushuntiruvchi;

kengaytiruvchi, tartibga soluvchi va asoslovchi;

aniqlashtiruvchi, tekshiruvchi va harakatga tayyorlovchi;

o‘quvchi alohida ma‘lumotni oladi, uni tahlil qiladi va umumlashtiradi;

olingan ma‘lumotni tartibga soladi, kengaytiradi va alohida predmetlar haqidagi tizimli bilimlarga birlashtiradi;

mavjud bilimlar asosida yangi hodisalarni oldindan ko‘ra oladi, o‘z bashoratining to‘g‘riligini asoslaydi va tajriba orqali tasdiqlaydi.

Bu yerda yangi muammolar va ularni hal qilish yo‘llari paydo bo‘ladi, ya‘ni

Tafakkur orqali u farazlarni shakllantiradi va ularni faoliyatda sinab ko‘radi. Bu esa o‘quvchi o‘z aqliy faoliyatini rivojlantirishiga imkon beradi.

Tafakkur inson va uning atrofida dunyo o‘rtasidagi o‘zaro ta‘sir jarayonining tarkibiy qismidir. Tafakkur jarayoni – idrok etuvchi, fikrlaydigan subyekt va o‘rganilayotgan predmet, hal etilayotgan muammoning ob‘yektiv mazmuni o‘rtasidagi doimiy o‘zaro ta‘sir jarayonidir.

Tafakkur o‘quvchilarning oldindan ko‘rish, rejalashtirish, tekshirish sifatida bilish faoliyatini ifodalaydi. Agar shakllantirilgan bilimlar operativ bo‘lsa, o‘quvchilar yangi hodisalarni kuzatishda yangi umumlashmalarni amalga oshirish



maqsadida ularni qo‘llashlari oson kechadi. Amaliy tafakkur jarayonini rivojlanish jarayonini quyidagi misollarda ko‘rib chiqamiz.

O‘quvchi (“Tabiiy fanlar”. O‘simlik va hayvonlarni yashash joyiga mos ravishda moslashtirish) bilimlari yuzasidan bir xil tabiatdagi o‘simlik va hayvonlarning yashashi, xatti-harakatlarini bir necha marta kuzatishi, o‘rganishi tafakkur rivojlanishining dastlabki darajasi hisoblanadi.

O‘quvchining bilish faoliyatini faollashuvi, tafakkurini rivojlanishi sifatli tashkil etilgan o‘quv jarayonda sodir bo‘ladi. Bu jarayon o‘quvchilarning ichki imkoniyatlarini hisobga olgan holda, individuallikni rivojlantirishga qaratilgan va o‘quvchilar tomonidan nafaqat bilim va ko‘nikmalarni faol rivojlantirishga qaratilgan bo‘lishi kerak, balki amaliy faoliyat usullari bilan integratsiyasini ta‘minlash ham zaruratdir.

Chunki, amaliy faoliyat sub‘yektning individualligi, uning shaxsiy xususiyatlarining psixologik xususiyatlari bilan belgilanadigan sub‘yekt va bilim ob‘yekti (tabiat, jamiyat, o‘zi, madaniy qadriyatlar tizimi, bilish va faoliyat tajribasi) o‘rtasidagi faol o‘zaro ta‘sir tizimi sifatida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, o‘quvchi tafakkurini rivojlanishida amaliy faoliyat - bu hissiy idrok hamda nazariy fikrlashning birligi. U hayotning har bir qadamida, o‘quvchilar faoliyatining barcha turlarida va ijtimoiy munosabatlarida (ishlab chiqarish va ijtimoiy foydali mehnat, qadriyatga yo‘naltirilgan va badiiy-estetik faoliyat, muloqot), shuningdek, mavzuga oid turli amaliy harakatlarni bajarish orqali amalga oshiriladi.

Adabiyotlar:

1. Кизовски Чеслав. Теория и практика управления деятельностью учащихся по развитию их мышления на уроках физики. Дисс. 75-с. 309 с
2. Кизовски Чеслав. Теория и практика управления деятельностью учащихся по развитию их мышления на уроках физики. Дисс. 86-с. 309 с
3. Да-выдова В.В. Психологическое развитие младших школьников. // Под. Ред. М., 1990 -С.78.,
4. Выготский Л. С. Психология / Л.С. Выготский – М.: ЭКСМО – Пресс, 2000. – 1008 с. 117.
5. Кизовски Чеслав. Теория и практика управления деятельностью учащихся по развитию их мышления на уроках физики. Дисс. 86-с. 309 с.
6. Ibragimov R. Boshlang‘ich maktab o‘quvchilarida bilish faoliyatini shakllantirishning didaktik asoslari. Ped.fan.dok.diss.Nizomiy nomidagi TDPI. –Т.: 2001 .-74-b. 250 b.

РЕЗЮМЕ

Maqolada tafakkur, bilish jarayonida tafakkurning turlari va shaxs tafakkurini o‘stirish borasidagi ma‘lumotlar bayon etilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье описано мышление, виды мышления в процессе познания, а также сведения о развитии личностного мышления.

SUMMARY

The article describes thinking, types of thinking in the process of cognition, as well as information about the development of personal thinking.